

“YETTI PIR” ZIYORATI – O‘ZBEKISTON TURIZM SOHASINING MUHIM YO‘NALISH

Muhammadjon Atojev

Bahouddin Naqshband

ilmiy-tadqiqot markazi yetakchi ilmiy xodimi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17411883>

Annotatsiya. Buxoro yurtimizning eng qadimiy va boy tarixga ega shaharlaridan biridir.

Buxorodagi “Yeti Pir” ziyoratgohining har biridagi boy tarix va misilsiz go‘zallik shahar jozibasini yanada orttiradi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanishida “Yeti Pir” ziyoratgohlarining tutgan o‘rni, tarixiy ildizlari va zamonaviy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Ziyorat yo‘nalishining diniy, madaniy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinib, uning turizm infratuzilmasini boyitishdagi roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Yeti Pir, ziyorat turizmi, Buxoro, tasavvuf, Naqshbandiya, ma‘naviy meros, diniy qadriyatlar, turizm infratuzilmasi, ziyoratchilar.

"YETTI PIR" PILGRIMAGE – AN IMPORTANT DIRECTION OF UZBEKISTAN'S TOURISM INDUSTRY

Annotation. Bukhara is one of the most ancient and historically rich cities in our Republic. The rich history and unique beauty of each of the “Yeti Pir” pilgrimage sites in Bukhara further enhance the city’s appeal. This article discusses the role, historical roots, and modern significance of the “Yeti Pir” pilgrimage sites in the development of spiritual and educational tourism in Uzbekistan. The religious, cultural, and social aspects of the pilgrimage route are analyzed, and its role in enriching the tourism infrastructure is highlighted.

Keywords: Yeti Pir, pilgrimage tourism, Bukhara, Sufism, Naqshbandi order, spiritual heritage, religious values, tourism infrastructure, pilgrims.

ПАЛОМНИЧЕСТВО “ЕТТИ ПИР” – ВАЖНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Бухара – один из древнейших и исторически богатых городов нашей республики. Богатая история и неповторимая красота каждого из мест паломничества «Йетти Пир» в Бухаре придают городу ещё большую привлекательность. В данной статье рассматриваются роль, исторические корни и современное значение мест паломничества «Йетти Пир» в развитии духовно-познавательного туризма в Узбекистане. Анализируются религиозные, культурные и социальные аспекты паломнического маршрута, а также подчеркивается его роль в развитии туристической инфраструктуры.

Ключевые слова: Семь Пиров, паломнический туризм, Бухара, суфизм, Накишбандия, духовное наследие, религиозные ценности, туристическая инфраструктура, паломники.

KIRISH

O‘zbekiston qadimdan buyuk sivilizatsiyalar, ilm va madaniyat markazi sifatida tanilgan yurt hisoblanadi. Bu zaminda o‘tgan ming yilliklar davomida din, falsafa, adabiyot, san‘at va ilm-fan sohalarida jahon tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ zotlar yashab o‘tgan. Islom dini O‘zbekiston xalqi hayotida chuqur ildiz otgan bo‘lib, u xalqning dunyoqarashi, ma‘naviyati va turmush tarzida o‘chmas iz qoldirgan.

Shu sababdan ham mamlakatimizda diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq joylar, avliyolar maqbaralari va tarixiy ziyoratgohlar juda ko'p uchraydi.

Bugungi kunda O'zbekiston o'zining boy ma'naviy merosi, qadimiy madaniyati va tarixiy yodgorliklari bilan nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda.

Turizm sohasi, xususan ziyorat turizmi, bu merosni dunyoga tanitishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ziyorat turizmi diniy va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish, tarixiy obidalarni ziyorat qilish, xalqimizning ruhiy dunyosi bilan tanishish imkonini beradi. Bu yo'nalish mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va madaniy aloqalarini rivojlantirishda katta salohiyatga ega.

Shu o'rinda, "Yetti Pir" ziyorati O'zbekistonning eng mashhur va qadimiy ziyorat yo'nalishlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. "Yetti Pir" tushunchasi asrlar davomida Buxoro vohasida shakllangan tasavvuf maktabi, ya'ni Naqshbandiya tariqati bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu tariqatning asoschilari va rivojlantiruvchilari bo'lgan yetti buyuk shayx – xalq orasida "pirlar" nomi bilan ulug'lanadi. Ularning hayoti, faoliyati va qoldirgan ma'naviy merosi nafaqat islom tafakkurining, balki butun insoniyatning ruhiy boyligiga aylangan.

"Yetti Pir" ziyorat an'anasi xalq orasida asrlar davomida davom etib kelmoqda. U diniy e'tiqod va ma'naviy tarbiyani birlashtirgan noyob hodisadir. Ziyoratning asosiy maqsadi – avliyolarning hayoti, ularning ta'limotlari va insonparvarlik g'oyalaridan saboq olish, qalbni poklash va ezgulik sari yo'nalish olishdir. Har yili minglab yurtdoshlarimiz hamda xorijiy ziyoratchilar Buxoroga tashrif buyurib, "Yetti Pir" zanjiridagi muqaddas maskanlarni ziyorat qiladilar. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish, infratuzilmani kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish imkonini bermoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan "Ziyorat turizmini rivojlantirish konsepsiyasi", bu sohada zamonaviy infratuzilma yaratish, xalqaro turistlar oqimini oshirish va madaniy meros obyektlarini asrashni ko'zda tutadi. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent kabi shaharlar ziyorat turizmining markazlariga aylangan. "Yetti Pir" ziyorati ana shu umumiy jarayonning yorqin namunasi sifatida diniy-ma'naviy merosni asrab-avaylash, xalqimizning o'zligini anglash hamda turizm sohasida yangi imkoniyatlar yaratish bilan bevosita bog'liq. Bu yo'nalish nafaqat diniy e'tiqodga asoslangan safar, balki milliy identitetni mustahkamlovchi, tarixiy xotirani tiklovchi va ma'naviy yangilanishni targ'ib etuvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, "Yetti Pir" ziyorati O'zbekiston turizm sohasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida, diniy, ma'naviy, madaniy va iqtisodiy jihatlarni uyg'unlashtirgan kompleks hodisadir. Ushbu maqolada ana shu ziyorat an'anasining tarixiy ildizlari, bugungi kundagi holati va uning turizm sohasidagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi.

"Yetti Pir" an'anasining kelib chiqishi va tarixiy ildizlari. O'zbekistonning ma'naviy hayotida ziyorat maskanlari, xususan, "Yetti Pir" an'anasi muhim o'rin tutadi. "Yetti Pir" deganda Buxoro viloyati hududida yashab o'tgan, islom va tasavvuf ilmining yirik namoyandalari bo'lgan yetti nafar avliyo nazarda tutiladi. Ular: Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Revqariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Ali Romitoni (Azizon), Bobo Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband Buxoriydir. Ushbu zotlar tasavvufning "Naqshbandiya" tariqati rivojida beqiyos o'rin egallagan. Ularning g'oyaviy merosi — "dil ba yoru, dast ba kor" (ya'ni, "ko'ngil Yor bilan, qo'l ishda bo'lsin") — bugungi kunda ham insonni mehnatsevarlik, halollik, sabr, tozalik, insonparvarlik kabi qadriyatlarga undaydi.

“Yetti Pir” anʼanasi XIII–XIV asrlarda shakllangan boʻlib, u nafaqat diniy, balki falsafiy-maʼnaviy yoʻnalish sifatida butun Markaziy Osiyo mintaqasida keng yoyilgan. Har bir “pir” oʻz maktabi, oʻz xazrati, oʻz hikmati bilan ajralib turadi. Masalan, Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoniylari tariqat asoslarini yaratgan boʻlsa, Bahouddin Naqshband uni mukammallashtirib, xalq orasida keng yoyilishiga sababchi boʻlgan. Ziyoratchilar orasida “Yetti Pir”ni ketma-ket ziyorat qilish “ruhan poklanish”ning eng oliy darajasi sifatida qaraladi. Buxoroga tashrif buyurgan har bir sayyoh ushbu yetti muqaddas joyni ziyorat etishni oʻziga sharaf deb biladi. Shuning uchun ham “Yetti Pir yoʻli” Oʻzbekistonning eng qadimiy ziyorat marshrutlaridan biri sifatida tan olingan.

Buxoro – tarix, eʼtiqod va zamonaviylik uygʻunlashgan maskan. Buxoro qadimdan “Muqaddaslar shahri” sifatida tanilgan. Uning har bir koʻchasi, har bir toshi tarix va maʼnaviyatdan soʻzlaydi. Bu yerda 140 dan ortiq meʼmoriy yodgorliklar mavjud boʻlib, ular orasida Minorai Kalon, Mir Arab madrasasi, Ark qalʼasi, Sitorai Mohi Xosa saroyi kabi tarixiy obidalar jahon miqyosida mashhur.

Shu bilan birga, Buxoro Oʻzbekistonning asosiy ziyorat turizmi markaziga aylangan. 2025-yilning dastlabki 8 oyida Buxoroga 1,4 milliondan ortiq xorijiy va 1,5 milliondan ziyod mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Shahar hududida 64 ta yangi joylashtirish maskani (mehmonxona, xostel, oilaviy mehmon uylari) ishga tushirilgan va 22 ta yangi turoperator faoliyat boshlagan.

Shuningdek, Buxoro shahrida oʻtkazilayotgan biyennale koʻrgazmalari, madaniy festival va xalqaro tadbirlar uning turistik jozibasini yanada oshirmoqda. Masalan, “Bahouddin Naqshband xotirasiga bagʻishlangan xalqaro forum” yil sayin yuzlab xorijlik olimlar, sayyohlar va ziyoratchilarni jalb qilmoqda. Bu tadbirlar orqali Oʻzbekistonning maʼnaviy merosi xalqaro miqyosda targʻib qilinmoqda. Ziyorat turizmining rivoji natijasida Buxoroda yangi yoʻnalishlar — “eko-turizm”, “oilaviy turizm”, “gastronomik turizm” va “tarixiy-maʼnaviy turizm” shakllanmoqda. Bu esa shahar iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltirib, mahalliy aholining bandligini taʼminlamoqda.

Oʻzbekiston turizmidagi rekord oʻsish va xalqaro eʼtirof. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston hukumati turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratmoqda. Bu saʼy-harakatlar oʻz samarasini bermoqda.

2025-yil aprel oyidan boshlab, Oʻzbekiston har oyda 1 milliondan ortiq xorijiy turistni qabul qilmoqda. Shu yilning toʻqqiz oyi davomida 8,6 milliondan ortiq turist mamlakatga tashrif buyurgan boʻlib, bu oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 112,5 foiz oʻsishni tashkil etadi.

Davlatlar kesimida turistlar oqimining oʻsishi quyidagicha:

- Buyuk Britaniyadan – 2,6 barobar,
- Qatardan – 6,2 barobar,
- AQShdan – 3 barobar,
- Fransiyadan – 2,9 barobar,
- Rossiyadan – 2,1 barobar,
- Vengriyadan – 3,3 barobar,
- Germaniyadan – 2,5 barobar,
- Polshadan – 6,2 barobar.¹

Bundan tashqari, 2025-yilda turistik xizmatlar eksporti hajmi 3,6 milliard AQSh dollaridan oshib, tarixiy rekord oʻrnatdi.

¹ Turizm qoʻmitasi 2025-yil hisobotlari.

Bu O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini ko'rsatib, mamlakatni Markaziy Osiyoning eng jozibali turizm markazlaridan biriga aylantirdi.

Mazkur o'sish, avvalo, ziyorat turizmi, jumladan "Yeti Pir" yo'nalishi bilan bevosita bog'liq. Chunki xorijiy turistlar orasida O'zbekistonning ma'naviy ziyorat joylariga — Buxoro, Samarqand, Termiz va Xorazmga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshgan.

"Yeti Pir" ziyorat yo'nalishining ma'naviy, madaniy va iqtisodiy ahamiyati. "Yeti Pir" ziyorati nafaqat diniy, balki madaniy-ma'rifiy hodisa sifatida ham muhimdir. Bu ziyorat inson qalbini poklaydi, milliy o'zlikni anglash va ajdodlar merosiga hurmatni mustahkamlaydi.

Shu boisdan, har yili nafaqat O'zbekiston, balki qo'shni davlatlardan ham minglab ziyoratchilar Buxoroga tashrif buyuradi.

Ma'naviy jihatdan, "Yeti Pir" ziyorati insonni sabr, diyonat, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarga chorlaydi. U xalqning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi, yoshlar ongida milliy faxr va vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytiradi.

Iqtisodiy jihatdan esa, ziyorat turizmi mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantiradi.

Ziyoratchilar oqimi sababli mehmonxonalar, transport xizmatlari, milliy taomlar markazlari, hunarmandchilik bozorlari faoliyati kengaymoqda. "Yeti Pir" yo'nalishidagi har bir maskan atrofida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Shuningdek, "Yeti Pir" konsepsiyasi asosida yangi turizm loyihalari amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Yeti Pir – ruhiy poklanish yo'li" nomli xalqaro brend ishlab chiqilmoqda, QR-kodli raqamli xaritalar va mobil ilovalar yordamida ziyoratchilar uchun interaktiv yo'riqnoma yaratilmoqda. Bu tashabbuslar Buxoroni zamonaviy turizm markaziga aylantirishda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

Ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari. Kelajakda "Yeti Pir" ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

Infratuzilmani modernizatsiya qilish – ziyoratgohlar atrofida yo'llarni, yoritish tizimini, dam olish joylarini yaxshilash;

Axborot texnologiyalarini joriy etish – har bir ziyorat maskanida elektron gidlar, audio yo'riqnomalarni yaratish;

Kadrlar tayyorlash – xorijiy tillarni biladigan, tarix va diniy qadriyatlarni yaxshi tushunadigan professional gidlar tayyorlash;

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – UNESCO va ISESCO bilan hamkorlikda "Yeti Pir"ni jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish tashabbusini ilgari surish.

XULOSA

"Yeti Pir" ziyorati O'zbekistonning ma'naviy, madaniy va iqtisodiy hayotida beqiyos o'rin egallaydi. Ushbu ziyorat yo'nalishi nafaqat diniy e'tiqodni mustahkamlaydi, balki xalqimizning tarixiy o'zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash va milliy g'urur tuyg'usini oshirishga xizmat qiladi. "Yeti Pir" orqali inson qalbi poklanadi, ruhiy yangilanish yuzaga keladi, sabr, halollik va insonparvarlik kabi qadriyatlar yanada mustahkamlanadi.

Kelajakda ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim:

- "Yeti Pir yo'li"ni xalqaro brendga aylantirish, marketing va PR ishlarini kengaytirish;
- raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar va elektron gidlar yordamida ziyoratchilar uchun qulaylik yaratish;
- professional gidlar, tarjimonlar va ma'naviy-tarbiya mutaxassislarini tayyorlash;
- ekologik va madaniy barqarorlikni ta'minlash orqali ziyoratgohlarni asrash.

Shunday qilib, “Yetti Pir ziyorati – O‘zbekiston turizm sohasining muhim yo‘nalishi” bo‘lib, u tarix, ma‘naviyat va zamonaviy taraqqiyotning uyg‘unlashgan ifodasidir. Bu ziyorat yo‘nalishi nafaqat milliy, balki xalqaro turizm maydonida O‘zbekistonni taniqli va jozibali markazga aylantirmoqda. Mamlakatning ma‘naviy merosi, tarixiy obidalar va iqtisodiy salohiyatini uyg‘unlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Islom Ensiklopediyasi. – T., 2019.
3. Navruzova G., Zoirov E. Buxoroyi sharifning yetti piri. - Toshkent: Muharrir, 2018. 80.
4. Asrorova L. Tariqatning yetti piri. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2021.
5. Navruz-zoda Zebiniso (2020). Evaluation of Holy Places of the Regions for the Development of Pilgrimage Tourism.
6. <https://gov.uz/oz/uzbektourism/sections/statistika>
7. <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2025.html>